

## **Yangi davr talabi**

Yurtimizning har bir go'shalarida "Yangi O'zbekiston-yangicha dunyoqarash" shiori bilan o'tkazilayotgan tadbirlar kundan-kunga kengayib, o'ziga xos tantanavorlik kasb etib bormoqda. Bunday tantanali yig'ilishlarda xalqimiz tomonidan keyingi yillarda xalq xo'jaligining turli sohalarida qo'lga kiritilayotgan ulkan yutuqlar hamda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar e'tirof etilmoqda. Shunday tantanali tadbirlardan biri 2020-yilning 20-noyabr kuni O'rta Chirchiq tumani Yungichqoli mahallasidagi 61-o'rta mактабда ham bo'lib o'tdi. Tadbirda nuroniy otaxon-onaxonlar, mahalla faxriylari, mahalliy hokimiyat vakillari, o'qituvchi va o'quvchilar, TIQXMMI "Gidravlika va gidroinformatika" kafedrasи professor-o'qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilari va boshqa keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdilar.



Tadbir mustaqil yurtimiz madhiyasi bilan boshlandi. Tadbirning ochilishida tuman nuroniylar kengashi raisi Z.Yo'idoshev va professor A.Arifjanovlar so'zga chiqdilar. Ular o'z ma'ruzalarida keyingi yillarda yurtimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatiga alohida-alohida to'xtalib o'tdilar. Taqdimot bilan boyitilgan ma'ruza tadbir ishtirokchilarining jonli muloqotiga ulanib ketdi. Tadbir badiiy qism bilan davom etdirildi. Unda Toshkent viloyati san'atkorlari hamda 61-maktab o'quvchilari tayyorlagan turli kuy-qo'shiqlar, she'rlar va raqslar ijro etildi. Ayniqsa yosh sportchilarning chiqishlari yig'ilganlarda katta ta'ssurot qoldirdi. TIQXMMI "Gidravlika va gidroinformatika" kafedrasи professor-o'qituvchilari eng faol ishtirokchilarga o'zlari tayyorlab borgan sovg'alar-kitoblarni topshirdilar. Tadbir tashkilotchilari tomonidan qiziqarli viktorina tashkil etildi hamda g'oliblarga esdalik sovg'alar topshirildi. Tadbir juda ko'tarinki ruhda, esda qolarli qilib o'tkazildi.

**TIQXMMI matbuot xizmati**